# YURIDIK SHAXS MAQOMIGA EGA BO‘LGAN KORXONA VA TASHKILOTLARDA ISHLOVCHI XODIMLARNING O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

(2021-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma’lumotlar qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 714,3** ming so‘mni tashkil etdi, 2020-yilning mos davriga nisbatan 12,7 % ga o‘sgan.

2021-yil yanvar-sentabr oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o‘rinlarda – o‘rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo‘shimcha to‘lovlar, mukofot pullari, rag‘batlantiruvchi to‘lovlar, konpensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to‘lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.

## Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori dinamikasi, *so‘mda*




## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi,**
*ming so‘mda*



## O‘rtacha oylik ish haqi, *ming so‘mda*








## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

# Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)









## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

# IQTISODIY FAOLIYAT TURLARIDA O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

## SANOAT

2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 341,3 ming so‘mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 117,9 foizni tashkil etdi.

Sanoat sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shofirkon tumanida 8 783,3 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,6 marta), Qorovulbozor tumanida 5 328,8 ming so‘mni (159,5 foiz), tashkil etgan bo‘lsa, Jondor tumanida 1 710,8 ming so‘mni (51,2 foiz) va Buxoro tumanida 1 663,4 ming so‘mni (49,8 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## QURILISH

2021-yil yanvar-sentabr oylarida qurilish sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 073,7 ming so‘mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 119,6 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 3 465,4 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 112,7 foiz) bo‘lsa, Kogon shahrida 3 057,2 ming so‘mni (99,5 foiz), Qorako‘l tumanida 2 767,9 ming so‘mni (90,1 foiz), Buxoro shahar 2 600,1 ming so‘mni (84,6 foiz), Shofirkon tumanida 2 546,5 ming so‘mni (82,8 foiz), Buxoro tumani 2 527,8 ming so‘mni 82,2 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## TA’LIM

2021-yil yanvar-sentabr oylarida ta’lim sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 146,1 ming soʻmni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 112,3 foizni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini hududlar boʻyicha koʻradigan boʻlsak, oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 2 797,7 ming soʻmni viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan (130,4 foiz), Qorovulbozor tumanida 2 530,2 ming soʻmni (117,9 foiz) va Kogon tumanida 2 352,8 ming soʻmni (109,6 foiz) tashkil etgan boʻlsa, Shofirkon tumanida 1 721,2 ming soʻmni (80,2 foiz), Peshkoʻ tumanida 1 643,4 ming soʻmni (76,6 foiz) va Vobkent tumanida 1 625,9 ming soʻmni (75,8 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.

## TASHISH VA SAQLASH

2021- yil yanvar-sentabr oylarida tashish va saqlash sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 078,3 ming soʻmni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 116,7 foizni tashkil etdi.

Tashish va saqlash sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini hududlar boʻyicha koʻradigan boʻlsak, oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Kogoh tumanida 7 530,7 ming soʻmni viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan (184,7 foiz), Romitan tumanida 5 392,2 ming soʻmni (130,7 foiz), Kogon shahar 4 320,9 ming soʻmni (105,9 foiz) tashkil etgan boʻlsa, Qorovulbozor tumanida 3 494,9 ming soʻmni (85,7 foiz), Buxoro shahar 2 118,3 ming soʻmni (51,9 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.

## AXBOROT VA ALOQA

2021- yil yanvar-sentabr oylarida axborot va aloqa sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 927,4 ming soʻmni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 110,5 foizni tashkil etdi.

Axborot va aloqa sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini hududlar boʻyicha koʻradigan boʻlsak, oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 3 086,2 ming soʻmni viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan (105,4 foiz) tashkil etgan boʻlsa, Vobkent tumanida 1 312,0 ming soʻmni (44,8 foiz), Olot tumanida 1 100,4 ming soʻmni (37,6 foiz) va Jondor tumanida 864,7 ming soʻmni (29,5 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.

## MOLIYAVIY VA SUGʻURTA

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliya va sugʻurta faoliyati sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 638,8 ming soʻmni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 132,6 foizni tashkil etdi.

Moliya va sugʻurta sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini hududlar boʻyicha koʻradigan boʻlsak, oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro tumanida 9 259,2 ming soʻmni viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan (139,5 foiz), Kogon shahar 7 201,7 ming soʻmni (108,5 foiz) va Buxoro shahar 6 844,2 ming soʻmni (103,1 foiz) tashkil etgan boʻlsa, Vobkent tumanida 5 467,7 ming soʻmni (82,4 foiz), Jondor tumanida 3 716,2 ming soʻmni (56,0 foiz) Shofirkon tumanida 2 637,0 ming soʻmni (39,7 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.

# SOG‘LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR KO‘RSATISH

2021- yil yanvar-sentabr oylarida sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 226,0 ming so‘mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 99,5 foizni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro tumanida 2 842,8 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (127,7 foiz), G‘ijduvon tumanida 2 750,8 ming so‘mni (123,6 foiz) va Qorovulbozor tumanida 2 563,0 ming so‘mni (115,1 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Vobkent tumanida 2 150,6 ming so‘mni (96,6 foiz), Olot tumanida 1 927,8 ming so‘mni (86,6 foiz), Qorako‘l tumanida 1 457,0 ming so‘mni (65,5 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

# SAVDO

2021- yil yanvar-sentabr oylarida savdo sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 229,5 ming so‘mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 120,1 foizni tashkil etdi.

Savdo sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Vobkent tumanida 3 353,8 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (150,4 foiz), Kogon tumanida 3 026,6 ming so‘mni (135,8 foiz) va Qorovulbozor tumanida 2 574,8 ming so‘mni (115,5 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Jondor tumanida 1 143,0 ming so‘mni (51,3 foiz), Qorako‘l tumanida 869,3 ming so‘mni (39,0 foiz) va Buxoro tumanida 723,3 ming so‘mni (32,4 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## Yuridik shaxs maqomiga ega korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik ish haqi,

*ming so‘mda*

| | *2020- yil yanvar-sentabr* | *2021- yil yanvar-sentabr* | *O‘sish sur’ati, % da* |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **2408,7** | **2714,3** | **112,7** |
| Buxoro sh. | 2516,3 | 3041,2 | 120,9 |
| Kogon sh. | 3138,0 | 3799,6 | 121,1 |
| *tumanlar:* | | | |
| Olot | 1905,9 | 2167,9 | 113,7 |
| Buxoro | 2076,5 | 2428,0 | 116,9 |
| Vobkent | 1734,9 | 1843,4 | 106,3 |
| G‘ijduvon | 1930,3 | 2303,3 | 119,3 |
| Kogon | 2418,7 | 2561,0 | 105,9 |
| Qorako‘l | 2339,4 | 1845,4 | 78,9 |
| Qoravulbozor | 3654,2 | 4074,2 | 111,5 |
| Peshku | 1839,8 | 1877,6 | 102,1 |
| Romitan | 2361,9 | 2332,3 | 98,7 |
| Jondor | 1961,3 | 2234,7 | 113,9 |
| Shofirkon | 1982,1 | 2140,9 | 108,0 |

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**

*Tel: (71) 230-83-16, (65) 223-83-37*